

Qishloq xo'jaligi loyihalari ko'zdan kechirildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-oktyabr kuni Nukus shahridagi "Qoraqalpoq baliq sanoat" mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyati bilan tanishdi.

Bu korxonada yiliga 200 tonna baliq va 5 million dona baliq lichinkalari yetishtirish, 5 ming tonna ozuqa yem tayyorlash quvvatiga ega. U shu yil iyulda faoliyat boshladi, 35 ta ish o'rni yaratildi.

Loyihaning ahamiyati shundaki, korxonada yopiq sig'imda intensiv usulda baliq yetishtiriladi. Ya'ni, suvdan takroran foydalanish evaziga katta hajmda suv tejiladi. Masalan, 200 tonna baliq yetishtirish uchun oddiy sharoitda 1,5 million metr kub suv sarflansa, bu yerda 250 metr kub yetarli. Bu Qoraqalpog'iston uchun juda muhim.

Korxonada, shuningdek, qayta ishlash quvvati va muzlatgich tashkil etilgan.

Shu yerda qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi loyihalar taqdimot qilindi. Davlatimiz rahbari chorvachilikda oilaviy koopersiyalarni yo'lga qo'yib, parrandani ko'paytirib, go'sht narxini arzonlashtirish choralarini ko'rish muhimligini ta'kidladi. Hududda yer va suvning aniq hisobini yuritish, bunga axborot texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.



Manba